

Xo‘jamkulov Pirimqul

Musiqqa ta’limi kafedrasida dotsent v.b.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *O‘zbekistonda professional xor ijrochiligining rivojlanishi va unda ko‘p ovozlilikning yirik va murakkab janrlarda xalqchilik, milliylik ko‘rinishini olishi juda murakkab va jiddiy izlanishlar ostida kechdi. Tabiiyki bu jarayonda ko‘povoziqlik xor san’atida a cappella ijrochiligini ham joriy etilishi, uning ham milliy negizda shakllanishi, zamonaviy musiqa madaniyatimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lishligini taqazo etardi.*

Kalit so‘zlar: *xor, xor asarlari, jo‘rsiz xorlar, musiqali dramalar, rivojlanish, a cappella.*

Аннотация. *Развитие профессионального хорового исполнительства в Узбекистане и тот факт, что полифония в больших и сложных жанрах принимает формы национализма и национализма, стали предметом очень сложных и серьезных исследований. Естественно, что полифония в этом процессе означала и введение, а капелла в хоровое искусство, его формирование на национальной почве, его место в нашей современной музыкальной культуре*

Ключевые слова: *хор, хоровые произведения, хоры без сопровождения, музыкальные драмы, развитие, а капелла.*

Abstract. The development of professional choral performance in Uzbekistan and the fact that polyphony in large and complex genres takes the form of nationalism and nationalism have become the subject of very complex and serious research. Naturally, polyphony in this process also meant the introduction of a cappella into choral art, its formation on national soil, its place in our modern musical culture.

Keywords: choir, choral works, unaccompanied choirs, musical dramas, development, a cappella.

Jamiyatning madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma’naviy axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga respublikamizning barcha yoshlarining ma’naviy estetik madaniyatini shakllantirishga erishish yotadi. Shaxsan estetik did, tafakkurni boyitmasdan turib ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jabhalardagi vazifalarni bajarish, milliy an’ana istiqloq mavkurasini to‘la to‘kis yaratish mumkin emas. Zamon talablariga har tomonlama javob beradigan, yuqori malakali barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish mustaqillik yo‘lidan boradigan jamiyatimizning eng oliy maqsadidir. Barkamollikning yuksak mezonini insonning chinakam manaviyat va ma’rifat sohibi bo‘la olish bilan belgilanadi.

O'tgan asrning 1-yarmida xalq orasidan chiqqan va professional musiqachilar keng miqiyosda ish olib bordilar. Ta'lim muassasalarida ilk bora Yevropa musiqa uslubida xor asarlarini kuylash kabi ishlar sinovdan o'tkazildi. Bu o'rinda o'zbek xalq musiqachilaribastakorlar, hofizlar, sozandalarning rus kompozitorlari bilan muloqotlari juda samarali bo'ldi. Jumladan, dastlabki o'zbek xor asarlarini vujudga kelishida rus kompozitorlarining o'zbek kuyqo'shiqlarini (turli ijrochilar tarkibi uchun) qayta ishlab shu asosda ko'p ovozlilik va jo'rsiz xor asarlarini yaratishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xor qo'shiqlari orasida bu davrda yaratilgan musiqali-drama, syuitalar paydo bo'la boshladi. M.M.Ivanovning "O'zbekistonning musiqa lavhalari" (1931), A.F. Kozlovskiyning "Lola" syuitasi (1937), R.M.Glierning orkestr uchun "Farg'ona bayrami", shuningdek R.M.Glierning (T.Sodiqov va T.Jalilov bilan hamkorlikda) "Gulsara", V.A.Uspenskiyning (Sh.Shoumarov va G.Mushel bilan birgalikda) "Farhod va Shirin" (1937) musiqali dramalarini shunday asarlar hisobiga kiritish mumkin.

Musiqiy ta'lim jarayonida musiqiy tafakkur, bilish jarayoni, tasavvurlar, tushunchalar, kategoriyalarning tarkib topishiga olib keladi. Inson musiqa tinglashi, ijro etishi orqali o'z ichki xis tuyg'ularini, voqelik xodisalarini aks ettiradi. Inson ruhi orqali musiqiy olamni biladi, so'ngra ularni boshqa tinglovchilarga yetkazmoq uchun musiqiy ijod orqali shakllarga kiritadi. Vaxolanki, atrofimizni tabiat hodisalari, predmetlari, inson tomonidan yaratilgan musiqiy xor asarlari, kuy va qo'shiqlar, qo'shiqlardagi tovush ohanglari jarangi qurshab olgan. Bu olam o'zining nihoyatda xilma-xil tovush temblari, ranglari va bo'yoqlari bilan inson hissiyotiga ijobiy ta'sir etib turadi. Musiqa ohanglari va tovushlar majmuasi inson sezgilarida aks etadi. o'quvchi va talabalarning yaratuvchanlik qobiliyatini axloqiy fazilatlarini, ijodiy ko'tarinkiligini, iste'dodlarini to'la namoyon eta olish fazilati- musiqiy ta'lim faoliyati asosida ruyobga chiqadi. Bu fazilatlar bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarning barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu musiqiy faoliyat jarayonida ongli samarali ishtirok etish faolligini tinmay oshirib borish va kamol toptirish bilan uzviy bog'liqdir. Axloq, odob va ijodiy ko'tarinkiligini, iste'dodlarini to'la namoyon eta olish fazilatlarini- xorshunoslik asoslarini puxta va mukammal o'rganishi orqali ruyobga chiqadi. Bunda xor dirijyorligi, xor sinfi, xor adabiyoti, xor partiturasini o'qish mahorati, musiqa nazariyasi garmoniya, solfedjio, polifoniya musiqiy taxlil, pedagogika psixologiya, bolalar va o'smirlar fiziologiyasi, xor san'ati asoslarini o'zlashtirish va raxbarlik qilish tamoyillari kiradi.

Xor san'atida adabiy va musiqiy ijodning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida, yaxlit bir badiiy asar yaratiladi. Bu san'at xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, boshqa xalqlar milliy musiqa madaniyatini shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynab kelgan. O'tmishda professional xor ijrochiligiga ega bo'lmagan qardosh respublikalarda o'ziga xos yo'llar bilan shakllanib kelgan. Bu xalqlar milliy an'analarga tayangan xolda xor san'atini yangi yo'nalishlarini yarata boshladilar. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra So'g'd davlatlarida professional xor jamoalari mavjud bo'lgan. Keyinchalik arab istilosidan keyin bu san'at rivojlanmagan. Qadim zamonlardan beri

urug'chilik jamiyatini yemirilishi va sinfiy jamiyatga o'tish Baqtriya, Sug'diyona va Xorazm davlatlarining paydo bo'lishi, axmoniylarning xarbiy yurishlari, ma'muriy jihatdan birlashuvlari, Aleksandr Makedonskiy davlati Grek-Baqtriya podshoxligigi vujudga kelishi eramizdan olidngi VII-asrdan to eramizning IV asrigacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Qahramonlik afsonalari, epik qo'shiqlar o'rta Osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo'yoqdor tasvirlari bilan to'la.

Vatanga bo'lgan munosabati to'g'risida xikoya qiluvchi Sak afsonalaridan parchalar bizgacha saqlanib qolgan. Masalan: Rustam va uning janglari, malika Taxminaga bo'lgan muxabbati, Rustam va Siyovush va boshqa baxodirlar to'g'risidagi afsonalar sikli shular jumlasidandir. U yerli madaniyatga yunon madaniyati afsonalari, kuy va qo'shiqlari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi va aksincha xalqlarimiz hayoti afsonalari kuy va qo'shiqlari haqida ma'lumotlar qadimgi yunon mualliflarining asarlarida o'z aksini topdi. Masalan: Klimey Aleksandrskiy Ksenifont, Strabon, Ptolomey, Gerodot asarlarida qadimgi xalqlarimizdagi turli ma'daniy qadriyatlar, xalq qahramonlari: To'maris, Sparetieri, Zarina, Shiroq haqidagi ma'lumot va afsonalar keltiriladi.

Amir Temur (1336-1405) davlati o'z davrida Yevropa va Osiyodagi eng yirik mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Uning avlodlari boshqargan davlat Shohruh, Ulug'bek, Xusayn Boyqaro davrlarida madaniyat va san'at gullab yashnadi. XIV asrning ikkinchi yarmidan asrning boshlarigacha bo'lgan davr yorqin, sermazmun, samarali davr hisoblanadi. Markaziy Osiyo tarixida nihoyatda ko'p, serqirra, rang-barang, madaniy ma'naviy boyluklarni yaratgani, xalq talantlari uchun imkoniyat yarata olganligi Turkiy xalqlar madaniyati va san'ati tarixida tamoman yangi uzoq asrlarga ozuqa bergan qatlamlar yangi sahifalar vujudga keltirgani bilan mashhurdir.

Birgalikda kuylash san'ati uzoq tarixga ega. Odamzod o'zini qurshab turgan tashqi olamda, o'zi yashayotgan jamiyatda, o'zi bilan muloqotda bo'layotgan kishilarda tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilayotgan badiiy ijod birgalikda kuylash namunalarida ruyobga kelgan. Inson go'zallikni xis qila olmas ekan, hech qachon uyg'un, ma'naviy barkamol inson bo'la olmaydi. Xor san'ati mana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish qudratiga egadir.

O'rta Osiyo xalqlari jumladan o'zbek xalqi professional xor san'atiga ega bo'lmasada qadim zamonlardan beri jamoa bo'lib qo'shiq aytish an'alariga ega bo'lgan. o'zini mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan, musiqiy durdonalarni yaratgan, og'zaki usulda avloddan-avlodga qoldirgan. Bolalar, ayollar, erkaklar alohida qo'shiq aytish an'analari bo'lgan. Masalan: Diniy marosimda kattalarni zikr tushishi, marsiya qo'shiqlarni kuylash, bolalarni ramazon oylarida ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylashi, Navro'z bayramlarida, mavsumiy sayllar, qiz bolalar va yigitlarni qo'shiq kuylashi, to'y marosimida ayollarni yor-yor, lapar, yalla, chertmak, besh qarsak jamoa (xor) va yakkaxon bo'lib ijro etilgan. Asrlar davomida to'plangan

“Shoshmaqom”ning vokal qismidagi taronalar ham uch-to‘rt va undan ko‘p xonandalar tomonidan aytilgan.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan ayniqsa Farg‘ona vodiysida “katta ashulalar” ham uch-to‘rt va undan ortiq xofizlar birgalashib ijro qilishgan. Ana shu folklor qo‘shiqlarning (yor-yor, o‘lan, yalla, xashar, besh qarsak, lapar, katta ashula va maqomlardagi tarona, ufor naqsh qismlari) birgalikda jamoa bo‘lib aytish kabi ijrochilik shakllari kelgusida o‘zbek xalqi orasida xor xavaskorligi, qolaversa o‘zbek xor san‘ati janrining rivojiga zamin yaratdi. Xavaskorlik xor jamoalari oktyabr inqilobidan keyin ommani siyosiy ijodiyotini o‘stirish, ommani uyg‘otish, uning ijodiy faoliyatini tashkil qilish kerak edi. Badiiy xavaskorlik sotsial ehtiyoj bo‘lib, u sobiq ittifoq davrida tug‘ildi, shakllandi va o‘tdi. 1920 yillardan boshlab Respublikamizda raqs va xor jamoalari maktablarda, o‘quv yurtlarida tuzilib keng tarqaldi. Xar bir to‘garaklarda kichik xor ansambli bo‘lib, yallalar, laparlar, revolyusion qo‘shiqlar va marsiyalar ijro etilar edi. Shu yillarda Xamza Xakimzoda Niyoziyning faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Shu davrlarda shaxar va qishloqlardagi maktablarda xavaskorlik teatr, xor to‘garaklari tashkil qilindi. Bu jamoalar xor, raqs va badiiy so‘z guruhlaridan iborat edi. Maktab teatr xavaskorlik to‘garaklarini tashkil etishda V.Sakovich, Ali Ardobus kabi tashabbuskorlar jonbozlik ko‘rsatdi. 1919 yili Sakovich 300 ta bolani maktab (xor, raqs va drama) teatriga birlashtirdi. “Zebiniso” maktabida qizlar xori, keyinchalik bu xor “San‘atchi qizlar” nomi bilan yuritildi. 1919 yilda Sh.Shoumarov “Namuna” nomli o‘zbek maktabida. 1922 yilda Saodatxonim Yenikeeva Toshkent improsida o‘zbek qizlaridan xor jamoalari tuzdilar. Marg‘ilonda Usta Olim Komilov, Samarqandda Matyusuf Xarratov Turkiston fronti qismlarida ham internatsional konsert brigadalari tashkil topadi. Ular ommaviy qo‘shiqlarni va milliy ashulalarni kuylash bilan birga o‘zlari ham qo‘shiqlar to‘qishar edi. Masalan: “Botir askar”, “Soqchi” va shunga o‘xshash juda ko‘p kuy va qo‘shiqlar to‘qib xor jamoalari bilan ijro qilar edilar. 1930 yillarga kelib musiqa xor xavaskorligida yangi burilish paydo bo‘ldi. Yangi-yangi qo‘shiqlar yetuk bastakorlar tomonidan xor jamoalari uchun yozildi va ijro etildi. Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Faxritdin Sodiqovlar bir-ikki ovozli xor qo‘shiqlari yaratdilar. Yunus Rajabiyning “Bizning qishloq”, Faxriddin Sodiqovning “Xormang endi, kolxozchilar” kabi qo‘shiqlari xavaskorlik xor jamoalarida keng tarqaldi. 1934 yilda Toshkentda xavaskorlik san‘atining viloyat musiqa badiiy olimpiadasi o‘tkazildi. 1000 kishilik qo‘shma xor, 300 kishilik duxovoy orkestr qatnashdi. Bu olimpiada xavaskorlik to‘garagi ish faoliyatini ancha ilgarilatdi. 1937 yil Moskvada o‘tgan o‘zbekiston adabiyoti va san‘ati dekadasida xor jamoalari faol qatnashdilar. 1938 yilda Respublika olimpiadasiga asosan maktab va o‘quv yurtlari xor jamoalari, xavaskorlik to‘garaklari son jihatdan ko‘paydi. Urushgacha davrda xor jamoalari soni ko‘paygani bilan sifat jihatidan uni son ijrochiligi hukmron edi. 1943 yildan boshlab Respublika ijodiy uyi o‘z faoliyatini davom ettira boshladi. 1940 yillarning II-yarmidan boshlab barcha xor jamoalarini ishi tiklana bordi. 1946 yilda Badiiy xavaskorlikning ikkinchi

olimpiadasi o‘tkazildi. Bunda 20 ming kishini o‘z ichiga olgan mingdan ortiq xavaskorlik jamoalari qatnashdi.

1949-1950 yillarda o‘tkazilgan uchinchi Respublika olimpiadasi o‘tkazildi. Bunda 1585 xavaskorlik jamoasi bo‘lib 25 ming kishi qatnashdi. o‘zbek xori va ansambllari ishtirok etdi. 1950 yillardan boshlab xor xavaskorligining ko‘p ovozlik turi rivojlana bordi. Bunda Toshkent Davlat Konservatoriyasi, musiqa bilim yurti madaniy oqartuv texnikumi o‘qituvchi va talabalari tomonidan xor jamoalariga amaliy va metodik yordam berdilar va o‘zlari xor jamoalarini ko‘plab tuzdilar. S.Yudakovning “Tinchlik tarafdorlari marshi”, A.Muxamedovning “Tinchlik bayroqdori”, S.Yudakovning “Mirza cho‘l” syuitasidan ayrim qismlari va ko‘p ovozli xorlar yangradi. 1953, 1954, 1955 yillarda o‘tkazilgan ashula bayramlarida 20 ming xavaskor ijrochi qatnashdi. Xilma-xil ko‘p ovozli xor asarlari yangradi. Bunda yuqori ijrochilik mahoratini namoyish etdilar. 1950 yillarni oxiriga kelib Toshkent Davlat Konservatoriyasi o‘qituvchilari M.Subaeva, S.Valenkovlarning bolalar xori tashkil qilindi. 1960-1970 yillarga kelib xavaskorlik xor jamoalarini son va sifati o‘zgardi. 1975-1977 yillarga kelib, Birinchi Butun ittifoq mehnatkashlar badiiy ijodiyoti festivalining zonal ko‘riklarida ko‘pgina xor jamoalari laureat, diplom va oltin medallar bilan taqdirlandilar.

1977 yilda O‘zbekiston xavaskorlik xor jamoalari Tallinda o‘tkazilgan festivalda o‘z chiqishlari orqali xor jamoalari mahoratini namoyish qildilar. Bugungi kunda o‘zbekistonda musiqa va xor san‘atiga yanada katta e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda bolalar xor ijrochiligining rivojlanishida Ye.M.Kenzer, S.A.Valenkov, A.Vasileva, o‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sh.Yormatovlarning xizmatlari juda katta. Xozirgi davrda “Boychechak” bolalar xori va “Bulbulcha” bolalar xori Toshkent Davlat Radiosi Telekompaniyasi qoshida tashkil topgan, rahbari Sh.Yormatov ularning dasturida ko‘p ovozli jo‘rsiz xor asarlari mavjud. 1982 yilda Bolgariyada bo‘lib Sofiya, Xaskovo, Plovdiv va Dmitrovgrad shaxarlarida konsertlar berishgan. Bunday xor jamoalari kelgusida professional xor jamoalarini rivojlanishiga olib keladi.

Kattalar aralash xorlari Respublikamizni har bir Institut, Universitet, Akademik-litsey va Kollejlarida mavjud. Toshkent, Andijon, Buxoro, Farg‘ona, Yangiyo‘ldagi xavaskorlik xor jamoalari o‘z maxoratlarini oshirish borasida muttasil ishlab kelmoqdalar. Xozirgi davrda Respublikamizda yuzlab ashula va raqs ansambllari, folklor ansambllari mavjud. Xor jamoalari ayollar va erkaklar vokal ansambllari tuzish va keyinchalik uch-to‘rt ovozlik xor vokal gruppalarni tashkil qilish mumkin. Kelgusida bunday xor jamoalari mahalliy xalq orasida rivojlanishi mumkin. “Anor” xalq ansambli Farg‘onaning Quva viloyatida, Namangan viloyati Chust tumani “Gulruh Ch”, “Chust taronalari”, “Rohat”, “Shalola” xalq xorlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda

Bugungi kunda kompozitor va bastakorlarimiz tomonidan akademik va xalq xorlari uchun juda ko‘p asarlar yozilgan.

Sh.Ramazonov, T.Sodiqov, M.Ashrafiy, S.Yudakov, D.Zokirov, Yu.Rajabiy, A.Muhammedova, T.Jalilov, M.Burxonov, M.Leviev, I.K.Akbarov, S.Boboev, F.Nazarov, K.Kenjaev, B.Umidjonov, D.Omonullaeva, M.Bafoev, R.Abdullaev, R.Mujdaboeva, J.Shukurov va boshqa yosh bastakor va kompozitorlar xalq qo‘shiqclarini qayta xorga moslashtirganlar.

Ko‘p ovozli, jo‘rli va jo‘rsiz xor asarlarini yozdilar. Xalq ijrochilik an‘analari negizida tug‘ilgan musiqa xor xavaskorligi yarim asrdan ortiqroq davrda shakllandi va rivojlandi.

ADABIYOTLAR:

47. Кадиpова, З. З. (2019). Психолого-педагогические проблемы изучения понимания учебно-воспитательных ситуаций учителем. *Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании*, 1(1), 6-11.

48. Kadirova, Z. Z. (2022). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrastalar. *Monografiya*, 1(1), 120.

49. Leylo, M., & Pavlovna, I. Y. (2023). Motive of children's suffering in the story z. prilepin “white square”. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 77-80.

50. Yuliya, I. (2023). The place of Shamshad Abdullayev and the “Fergana school of poetry” in modern literature. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-523.

51. Isayeva, Y. (2023). Relevance of studying national character. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 95-100.

52. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.

53. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.

54. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.

55. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.

56. Akhmedov, B. A. (2024). Dialogue Leading to a Problematic Situation and Its Place In School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 28, 17-21.

57. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic methods in education based on conflict dialogue. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(3), 1-7.

58. Akhmedov, B. A. (2024). Reorganization of teaching manual in higher education in Tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 24, 13-25.
59. Akhmedov, B. A. (2024). Methods Of Improving the Quality of Dissertation Works in The Exact Sciences of The Tashkent Region. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(1), 39-57.
60. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic dialogue as a response to the challenge of the Epoch. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(1), 1-9.
61. Akhmedov, B. A. (2023). Physics is a Science Forming Knowledge About Health. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 350-355.
62. Тангиров, И. Х., & Ахмедов, Б. А. (2021). Перспективы развития правового государства. *Политика и общество*, 7(18), 178-186.
63. Axmedov, B. A., & Muxamedov, G. I. (2021). Klaster Mobile DGU 09834.
64. Akhmedov, B. A. (2023). Use of information technology in medicine, history, biology, literature, physical education. *Uzbek Scholar Journal*, 22, 17-29.
65. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
66. Akhmedov, B. A., & Khimmataliyev, D. O. (2023). The emergence-theoretical aspects of dialogue in education. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(2), 1-7.
67. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
68. Akhmedov, B. A. (2023). Prospects and trends of digital twins in education. *Uzbek Scholar Journal*, 23, 6-15.
69. Akhmedov, B. A., Makhmudova, D. M., & Akhmedjonov, D. G. (2024). Using the Socrates method in improving the quality of education in pedagogical universities. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 2(1), 16-24.